



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI DARSGA BO‘LGAN

QIZIQISHINI OSHIRISH USULLARI

Qarshi Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi BT 023-99 guruh talabasi **Uroqova Go‘zal Azamat qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni darsga qiziqtirishning turli usullari aytib o‘tilgan. Turli xil metodlar ko‘rasatilgan. O‘yin metodlarini ahamiyati haqida so‘z borgan. Darsni tashkil etishda qanday usullardan foydalanish ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Motivatsiya, innovatsion va interektiv metodlar, o‘yin faoliyati , o‘qish faoliyati, o‘yin metodi, didaktik metod, metodolog.

Аннотация: В этой статье упоминаются различные способы заинтересовать учащихся уроком. Показаны разные методы. Говорили о важности игровых методов. Показано, какие методы используются при организации урока.

Ключевые слова: Мотивация, инновационные и интерактивные методы, игровая деятельность, учебная деятельность, игровой метод, дидактический метод, методист.

Abstract: In this article, various methods of making students interested in the lesson are mentioned. Different methods are shown. They talked about the importance of game methods. It is shown what methods are used in the organization of the lesson.

Key words: Motivation, innovative and interactive methods, game activity, study activity, game method, didactic method, methodologist.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’lim jarayoni nafaqat bilim olish, balki ularni qiziqtiradigan va motivatsiya beradigan muhitda tashkil etilishi muhimdir. Ushbu yoshdagi bolalar tabiatan qiziqvchan bo‘lishadi, biroq noto‘g‘ri dars uslubidan foydalanish ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishlari lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning diqqatlari tez bo‘linuvchan bo‘ladi, bu orqali ularning diqqatlarni o‘qituvchiga qaratib turish qiyin. Ularning diqqatlarini o‘qituvchi o‘ziga qaratib tura olishi uchun turli xildagi metodlardan foydanishi kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar endi o‘yin faoloyatidan chiqib, o‘qish faoliyatiga kira yotgani uchun ular bilan ko‘proq o‘yin metodlaridan qo‘llash kerak bo‘ladi. Metodlar o‘quvchilarning yosh hususiyatlariga to‘g‘ri kelishi va ularga murakkablik qilmasligi kerak. Metodlar o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlanishiga hissa qo‘sishi lozim. O‘yin metodlarni han bir fanga moslab tuzish mumkin. Masalan:

“U kim? Bu nima?”metodi. Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo‘yiladi. O‘qituvchi shu predmetlardan birortasini ta’riflaydi. O‘quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o‘yining afzallik tomoni shundaki, uni dars davomida o‘quvchilar diqqatini jamlash, qo‘llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin. Bu o‘yin o‘quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi. Masalan: U shar shaklida. Uni mashhur sportchilarimiz ham stadionlarda o‘ynaydilar. U yosh bolalarning ham sevimli o‘yinchog‘i. (javob: koptok).

“Keyingi bo‘g’inni top” didaktik o‘yini. Bu didaktik o‘yin yakka tartibda yoki guruh shaklida ham o’tkazilishi mumkin. O‘qituvchi tomonidan bosh bog‘inlar beriladi. O‘quvchilar ana shu bo‘g’in bilan boshlanadigan yangi so‘zlarni aytadilar. Shu va boshqa metodlardan foydalansa bo‘ladi.

Taniqli metodolog olim G.P.Shchedrovskiyning ta'kidlashicha, o'yin - bu bolalar rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki vujudga keltirilgan bolalar hayotining alohida shaklidir; bu jihatdan qaraganda, uning ijodkori alohida odamlar emas, balki umuman jamiyat bo'lsa ham, o'yinning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni "ommaviy", "tabiiy-tarixiy" bo'lsa ham alohida pedagogik ijoddir, unda tabiiy tarixiy qonuniyat alohida kishilarning xilma-xil faoliyati orqali o'ziga "o'ziga yo'l ochgan"

Boshlang'ich sinflarda darslarni turli usulda tashkil o'qitish mumkin. Boshlang'ich maktablarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi o'qitish usullaridan ba'zilari quyidagilardir:

1. Vizualizatsiya. Vizual va amaliy ta'lif tajribasi orqali zerikarli ilmiy tushunchalarni hayotga olib kelish, o'quvchilarga ularning hayotda qanday qo'llanilishini tushunishga yordam berish.
2. Hamkorlikda o'qitish. O'quvchilarni kichik guruh yoki butun sinfning faoliyatini rag'batlantirish orqali birgalikda ishlashga qodir bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirish.
3. So'rov asosida ko'rsatmalar. O'quvchilarni savol berishga va o'z g'oyalarini o'rganishga da'vat qilimoq, ularga muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, ilmiy tushunchalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har ikkisi ham muhim hayotiy ko'nikmalar.
4. Farqlash. Hech kim ortda qolmasligi uchun o'quvchilarning qobiliyatiga qarab vazifalarni taqsimlash orqali ta'lif jarayonini farqlash va belgilash.
5. Kasbiy rivojlanish. Muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etish o'qituvchining dars berish qobiliyatlarini yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi. Samarali o'qituvchi bo'lish oson ish emas, chunki har bir o'quvchi noyobdir, ammo ta'lif strategiyalarining kombinatsiyasidan foydalanib, o'qituvchilar ta'lismuslublarini hamda o'quvchilarning bilm salohiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olib, sinfdagi o'quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitni yaratish lozim.

O'quvchilarni yana ham darsga qiziqtirish uchun hikoya va matnlarni sahna ko'rinishi qilish mumkin. Bunda hikoyadagi obrazlarni o'quvchilarga bo'lib , sahna ko'rinishi tuzish lozim. Bunda darsga qiziqishi kam bo'lgan o'quvchiga ham ro'l berish oraqlari uni darsga qiziqtirish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilaring obrazli xotirasini kuchli bo'lgani uchun hikoyani yaxshi eslab qolishadi. Chunki uning hotirasida o'zi o'ynagan ro'l va ko'rgan narsalari yaxshiroq saqlanib qoladi.

Bunday tashqari o'quvchilarga jamoviyligi ishlash uchun vaziyatlar yaratish ham o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Chunki, o'quvchi jamoada ishlaganda, unda boshqa o'quvchilar bilan fikr almashish holati kuzatiladi. Agar o'qituvchi jamoa sardori sifatida darsga qiziqishi past o'quvchini tanlasa guruh uchun masuliyat his qilgan holda darsga qiziqishi oshadi. Hozirgi kunda nashr etilayotgan daraliklarda audio hikoyalari va she'rlar mavjud, bularni o'quvchilarga eshiritib berish va video, rasmli ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Chunki hozirgi davr o'quvchilarga video darslarga nisbatan qiziqish yuqori. Ammo har doim bu tartibda darsni o'qitish o'quvchilarni zerikishga olib keladi. Shuning uchun har bir darsni o'zgacha tashkil etish lozim bo'ladi.

XULOSA

Xulasa qilib aytganda o'quvchilarni darsga qiziqtirishning bir necha usullari bor. Ularni darsning va fanning mazmuniga qarab tanlay bilish kerak. Agar o'qituvchi doimiy tarzda darsni tashkil etsa o'quvchining darsga nisbatan qiziqishi so'nib boradi. O'qituvchi dars tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishlar va harakteriga ham e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Masalan, hikoyani sahnalashtirishda o'quvchilarga obrazlar bo'lib berish vaqtida o'qituvchi o'quvchilarning harakteri hususiyatiga qarab bo'lib bersa , o'quvchi ro'lni yana ham kuchliroq chiqarib beradi. Shuningdek boshqa o'quvchilarning xotirasida ham yaxshi saqlanib qoladi. Shunday qilib darsni turli usullar bilan qiziqarli qilib o'tkazish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Dilfuza Rivojidinova Ibragimova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish usullari "
2. Shoyusupova Shaxzoda "Ta'limiy o'yin faoliyati-kreativ qobiliyatni rivojlantirishning o'ziga xos vositasi sifatida"
3. Sherqobilova Rayhon Jumayevna "Boshlang'ich sinflarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish"

